

20-Iyun, 2025-yil

**INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF
O‘QUVCHILARIDA KRITIK FIKRLASH KO‘NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

Zokirova Ma’suma Qahramonjon qizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

<https://orcid.org/0009-0008-6454-971X>

email: masumazokirova775@gmail.com

Tel: +998902222759

Bugungi kunda ta’lim tizimida bir qator o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda, Bu esa o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki mustaqil va kritik fikrlash ko‘nikmalarini ham rivojlantirishni talab etadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinfda bu ko‘nikmalarni rivojlantirish muhim sanaladi. Boshlang‘ich yoshdagi bolalar ongida abstrakt fikrlash hali shakllanish bosqichida bo‘ladi. Shu sababli, ularning kritik fikrlashini rivojlantirishda vizual, hissiy-ta’sirchan metodlardan foydalanish samaralidir. Ularning tafakkuri ko‘proq obrazli va holatga yo‘naltirilgan hisoblanadi.

XX asr boshida psixologlar fikrlash jarayoni inson ongida turli obrazlarning kombinatsiyasi orqali sodir bo‘lishini taxmin qilishgan. Keyinchalik boshqa psixologlar fikrlash “ichki nutq” ekanligini, ya’ni inson o’zi bilan suhbatlashayotgandek, ammo so‘zlarni ovoz chiqarib aytmasdan mulohaza yuritishini ilgari surdilar. Bu taxminlarni tekshirish uchun psixologlar tajriba ishtirokchilaridan turli savollarga javob berayotganda ongida nimalar sodir bo‘layotganini tasvirlab berishni so‘rashgan. Darhaqiqat, bunday savollarga tasvir yoki xayoliy obraz yaratmasdan javob berish deyarli imkonsizdir. Biroq yuqoridagi kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, inson fikrlayotganda ichki nutq, tasvirlar yoki boshqa ong jarayonlaridan foydalanadi va bu jarayonlarni tushunish fikrlash psixologiyasini anglash uchun muhimdir.

Kritik fikrlash - bu, avvalo, ijodiy fikrlashdir. Dayana Xalpernning tadqiqotlarida tanqidiy fikrlashning mohiyati uning rivojlanishi nuqtai nazaridan ochib berilgan va uni rivojlantirishning samarali usullari taklif etilgan. Bu yondashuvlar rivojlantiruvchi ta’lim g’oyalariga hamohang bo‘lib, bunda, eng avvalo, “fikrlashga o’rgatish”, jumladan, “mazmun haqida fikrlash” va “o‘z fikrlashini tahlil qilish” muhim hisoblanadi. Endi “nimani o’rgatish” emas, balki “qanday o’rgatish” masalasini qo‘yish joiz.

Psixolog olimlar tomonidan “tanqidiy fikrlash” atamasiga bir nechta ta’riflar berilgan bo‘lsa-da, ularning hammasi mazmun jihatdan bir-biriga yaqin.

20-Iyun, 2025-yil

Tafakkur – miyaning funksiyasi bo’lib, uning tahlil va sintez qilish faoliyati natijasidir. Tafakkur har ikkala signal tizimining ishtirokida amalga oshadi, biroq bunda ikkinchi signal tizimi yetakchi rol o’ynaydi. Fikrlash jarayonida miya po’stlog’ida vaqtinchalik asab aloqalari shakllanadi va yangi fikr hosil bo’lishi asab aloqalarining yangicha kombinatsiyasini hosil qilishni anglatadi.

Bizning atrof-muhit haqidagi bilish jarayonimiz sezgi va idrokdan boshlanadi va tafakkurga o’tadi. Tafakkurning vazifasi – bilish chegaralarini kengaytirish va bevosita sezgi orqali anglab bo’lmaydigan jihatlarni aniqlashdir.

Tafakkur boshqa bilish jarayonlari va nutq bilan chambarchas bog’liq. Tafakkur va nutq yaxlit jarayon hisoblanadi, chunki nutq tafakkurning ifoda vositasi bo’lib xizmat qiladi. Anatomiya nuqtai nazaridan, tafakkur katta yarim sharlarning murakkab tahlil va sintez qilish faoliyatining natijasidir.

Tafakkur muayyan vazifalar, savollar va muammolarni hal qilish jarayonida namoyon bo’ladi. Har qanday muammo hal qilinishi natijasida inson yangi bilimlarga ega bo’ladi. Ba’zan bu jarayon juda murakkab kechadi, shuning uchun tafakkur faoliyati odatda faol va diqqat-e’tibor, sabr talab qiladi.

Tanqidiy tafakkurning asosiy jihatlaridan biri – refleksiya qobiliyatidir. Inson o’z tafakkur faoliyatini kuzatib, tahlil qila olishi kerak. Tanqidiy tafakkur – bu shaxsning aqliy faoliyatini tahlil qilish, tushunchalar, xulosalar va mulohazalar bilan ishlash, hamda o’zining va boshqalarning fikrlash jarayonlarini baholash qobiliyatidir. M. Mahmudov kritik fikrlashni shaxsning quyidagi qobiliyatlari orqali tavsiflaydi:

- Bayon qilingan fikrlar yoki xatti-harakatlardagi mutanosibliklarni ko’ra olish;
- Qabul qilingan me’yorlar yoki shaxsiy qarashlarga muvofiqligini baholash;
- Fikrlarning haqiqatligi anglash va ularga mos ravishda munosabat bildirish;
- Tahlil qilish, isbotlash yoki rad etish qobiliyatiga ega bo’lish.

Kritik fikrlashning rivojlanish darajasini aniqlash o’quvchilarining tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish metodlari va texnologiyalarini tanlashda muhim shartdir. Odatda, boshlang’ich sinf o’quvchilarida kritik tafakkurning uch darajasi farqlanadi:

“Shakllanayotgan” kritik fikrlash darajasi: o’quvchilar bilim jarayonidagi xatoliklar va nomutanosibliklarni sezadi, lekin ularni tahlil qilish va tushuntirish qobiliyatiga ega emas.

20-Iyun, 2025-yil

“Faollashgan” kritik fikrlash darajasi: o’quvchilar bilim jarayonidagi xatoliklar va nomuvofiqliklarni topishadi, lekin ularning paydo bo’lish manbasini ohib berishga intilishmaydi (bu ko’proq 1-2-sinf o’quvchilari uchun xarakterlidir).

“Rivojlangan” kritik fikrlash darajasi: o’quvchilar nafaqat bilim jarayoning qismlarini o’zaro bog’liqligini aks ettiradilar va ularda mavjud bo’lgan xatoliklar va noaniqliklarni aniqlaydilar, balki ularning paydo bo’lish sabablarini ham ohib beradilar va ularni bartaraf etish usullarini taklif etadilar.

Har bir bolaning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olib, ularning qiziqishlari, ehtiyojlari va rivojlanish sur’atlariga mos metodlar tanlanadi. Bu esa o’z navbatida kritik fikrlashni bosqichma-bosqich rivojlantirishga imkon beradi. Integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan dars jarayonlari boshlang’ich sinf o’quvchilarining tanqidiy fikrlash ko’nikmalarini samarali rivojlantirishda muhimdir. Bunda psixologik yondashuvlar o’quvchilarning ichki salohiyatini yuzaga chiqarishda asosiy vosita bo’lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Клустер Д. Что такое критическое мышление? / Д. Клустер // Перемена. – 2001. – № 4. – С. 5-13.
2. Кочерга А. В. Взаимосвязь мышления, чувств и воображения в развитии критичности человека / В. Кочерга. Автореф. дис. канд. психол. наук : 19.00.01 Ин-т психологии им. Костюка АПН Украины. – М., 2003. – 16 с.
3. Кларин М.В. Инновационные модели обучения в зарубежных педагогических поисках / М. В. Кларин. – М. : Арина 1994. – 124 с
4. Махмутов М. И. Организация проблемного обучения в школе / Махмутов М. И. – М., 1977. –240 с.